



DIPLOMATIC RELATIONS BETWEEN UZBEKISTAN AND TURKEY DURING THE YEARS OF INDEPENDENCE

Xoliqulov Rustam Sharipovich ¹, Turakulov Mexroj Turakulovich ²

¹Docent of Samarkand State University, teacher of the department of history of Uzbekistan

²Master of the Department of History of Uzbekistan, Samarkand State University
<https://doi.org/10.5281/zenodo.4717480>

ARTICLE INFO

Received: 17th April 2021
Accepted: 21nd April 2021
Online: 23rd April 2021

KEY WORDS

collaboration,
consultation,
development, strategy.

ABSTRACT

To study the important aspects of cultural, trade and economic relations, strategic ties between Uzbekistan and Turkey during the years of independence and the importance of these relations at the level of the two countries. Clarification of Uzbekistan's membership in the Council of Turkic Speaking States and the role of the states in the future cooperation.

MUSTAQILLIK YILLARIDA O'ZBEKISTON VA TURKIYA DIPLOMATIK ALOQALARI

Xoliqulov Rustam Sharipovich ¹, Turakulov Mexroj Turakulovich ²

¹Samarqand Davlat Universiteti dots.O'zbekiston tarixi kafedrasida o'qituvchisi

²Samarqand Davlat Universiteti O'zbekiston tarixi kafedrasida magistri

MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 17-aprel 2021
Ma'qullandi: 21-aprel 2021
Chop etildi: 23-aprel 2021

KALIT SO'ZLAR

hamkorlik, kengash,
rivojlantirish, strategiya.

ANNOTATSIYA

Mustaqillik yillarida O'zbekiston va Turkiya o'rtasidagi madaniy, savdo-iqtisodiy munosabatlar, strategik aloqalarning muhim jihatlarini va bu munosabatlaning ikki davlat miqyosidagi(o'rtasidagi) ahamiyatini o'rganish. O'zbekistonning Turkiya tilli davlatlar kengashiga a'zolikini davlatlarning istiqbolli hamkorlikdagi o'rnini yoritish.

O'zbekiston uchun dunyoning Rossiya, AQSh va Xitoy kabi yetakchi davlatlari, Osiyo-Tinch okeani mintaqasidagi rivojlangan mamlakatlar, xususan, Koreya Respublikasi va Yaponiya, Yevropa mamlakatlari va Yevropa Ittifoqi, arab-musulmon hamda turkiya tilli davlatlar xususan Turkiya respublikasi bilan o'zaro manfaatli, samarali va ko'p qirrali hamkorlikni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Albatta, qayd etilgan ustuvor yo'nalishlar tartibiga muayyan tuzatishlar kiritish mumkin. Tashqi siyosat nafaqat puxta o'ylangan, vazmin, balki bir vaqtning o'zida ildam va qulay bo'lishi hamda hozirgi tez o'zgaruvchan, dunyoda yuzaga kelishini oldindan aytib bo'lmaydigan yangi muammo



va tahlikalarga o'z vaqtida va munosib javob berishi kerak¹.

O'zbekiston Tashqi ishlar vazirligining Yevropa mamlakatlari bilan hamkorlik boshqarmasi tomonidan muvofiqlashtiriladi. Mazkur tashriflar natijasida siyosiy, savdo-iqtisodiy, investitsiya, madaniy-gumanitar va boshqa sohalarda natijador kelishuvlarga erishildi. Germaniya Prezidenti F.-Sh.Shtaynmayer (2019-yil) va Turkiya Prezidenti R.T.Erdo'g'onning (2018-yil) respublikaga javob tashriflari muvaffaqiyatli amalga oshirildi. Turkiya Respublikasi O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligini birinchi bo'lib tan olgan. 1996-yilda mamlakatlarimiz o'rtasida Abadiy do'stlik va hamkorlik to'g'risidagi shartnoma imzolangan. Xalqlarimiz ko'p asrlik tarixi, tili, dini, qadriyatlari va mushtarak urf-odatlar bilan bir-biriga chambarchas bog'langan. Davlatlarimiz o'rtasida o'zaro ishonch asosidagi do'stona munosabatlar bugungi kunda izchil mustahkamlanib bormoqda. keng qamrovli ravishda amalga oshirildi. Turkiya O'zbekiston respublikalarining munosabatlari eng yangi zamon tarixiga nazar tashlasak Turkiya O'zbekiston Respublikasining mustaqilligini tan olib, ikki davlat o'rtasida diplomatiya munosabatlari o'rnatilgach, 1992 yil aprelda Turkiyaning Toshkentdagi elchixonasi, 1993-yil yanvarda esa O'zbekiston respublikasining Anqaradagi elchixonasi o'z faoliyatini boshladi. Istanbulda O'zbekiston respublikasining Bosh konsulxonasi ochildi². O'zbekiston respublikasi Prezidenti I. A. Karimov 1991 yil dekabr, 1994 yil iyun va 1997 yil noyabrda rasmiy tashrif bilan Turkiyada bo'ldi. 1998 yil

¹ Sh.Mirziyoyev "Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi". Toshkent., 2018

² Xonazarov Q. Mustaqillik va milliy munosabatlarning rivojlanishi. T.,2016

okTurkiyada Turkiya Respublikasining 75 yilligiga bag'ishlangan tantanalarda ishtirok etdi. O'z navbatida, Turkiya Prezidentlari Turkiya O'zal, S. Demirel va boshqa davlat arboblari bir necha bor rasmiy tashrif bilan O'zbekistonda bo'ddilar. Ana shu tashrif va mulokrlar natijasida ikki davlat o'rtasidagi munosabatlarning shartnomaviy huquqiy asoslari yaratildi. Jumladan, O'zbekiston bilan Turkiya o'rtasida "Abadiy do'stlik va hamkorlik to'g'risida"gi shartnoma hamda siyosiy, savdoiktisodiy, ilmiy-texnikaviy, harbiy va harbiytexnikaviy aloqalar, terrorism va narkotik moddalar savdosiga qarshi kurash, huquqiy yordam, sog'liqni saqlash, transport, sayyoxlik, madaniyat va boshqa sohalarda 78 hujjat imzolandi. O'zbekiston Respublikasi va Turkiya Respublikasi o'rtasida diplomatik aloqalar o'rnatilganiga chorak asr to'ldi deyish mumkin. O'sha 1992-yildayoq Toshkentda Turkiyaning elchixonasi ochildi, 1993-yil may oyidan boshlab esa Anqara shahrida O'zbekistonning diplomatik vakolatxonasi faoliyat yurita boshladi³. Jahonda kechayotgan keskin va shiddatli siyosiy jarayonlar, xavfsizlikka solinayotgan tahdidlar Turkiyani tashqi siyosatda "yetti o'lchab bir kesgan" holda muvozanatli siyosat olib borishini talab etmoqda. Zero, mavjud voqealik ham Sharq, ham G'arb bilan birdek munosabatlarga ega bo'lmagan davlatlar siyosatda ham, savdo iqtisodiy sohalarda ham yutqazishini namoyish etayotir. Xalqaro ekspertlar e'tirof etayotganidek, Yevroosiyo jahonning eng yirik va geosiyosiy jihatdan g'oyat muhim mintaqasi. Yevroosiyo umumiy kuch-qudrati va iqtisodiy salohiyati jihatidan hatto AQShni ortda qoldirayotgani bu mintaq

³ Bekmetov E. Xalqlar hamkorligi va iqtisodiy aloqalar. T., Mexnat, 1999.



imkoniyatlaridan dalolat beradi⁴. Yevroosiyaning yirik va kuchli davlatlaridan biri bo'lgan Turkiya yangi sharoitda o'z geosiyosiy vaziyatini yana qayta ko'rib chiqa boshladi. 1991 yildan keyin o'tgan davr mobaynida Turkiyaning rasmiy geosiyosiy faoliyatida ham, hokimiyat tepasiga kelgan kuchlarning va hokimiyat uchun kurashayotgan muxolifatning bayonotlarida ham, ilmiy va ijtimoiy fikr vakillarida ham mamlakatning kelgusidagi geosiyosiy faoliyatiga yondashuvlar ancha rang-barang ekani ko'zga tashlanadi. Ularning ba'zilari Turkiyaning G'arb dunyosi bilan munosabatlarni yaxshilash va Yevropaga qo'shilish yo'lini yana davom ettirishni qat'iy turib talab qilmoqdalar, boshqa guruhlar esa, Turkiyaga Yevropa va G'arbdan Yevroosiyo tomonga yuz o'girib, Markaziy Osiyo, Rossiya, Xitoy, Eron, Hindiston va boshqa katta davlatlar bilan jahonning yangi kuchini barpo etishni, integratsiyaning Yevropa Ittifoqining o'rnini bosadigan modelini, masalan, Shanxay Hamkorlik Tashkilotini rivojlantirishni taklif etmoqdalar.

XX asrning 90-yillaridan to 2000 yillarning boshiga qadar Turkiyaning, odatda partiyaviy manfaatlarga suyangan koalitsion hukumatlarining tashqi siyosat taktikasi va manevrlari yagona va uzoq muddatli strategik tashqi siyosat konsepsiyasiga emas, balki ko'proq an'anaviy, tavakkaldan xoli faoliyat amaliyotiga asoslangan⁵.

Hokimiyat faoliyatidagi hamma narsa eng avvalo, mamlakatni Yevropa Ittifoqiga a'zo bo'lishiga qaratilgan edi. Siyosiy doiralarning aksariyati Turkiya ertami-kechmi bu tuzilmaga a'zo bo'ladi, deya qat'iy ishonch

⁴ Iskandarov I. Bozor iqtisodiyotiga o'tish: qiyinchiliklar, yechimlarni izlash. Inson va siyosat. 1995. №8

⁵ Salimov va b. Yangi O'zbekistonning 3 zafarli yili. T., Sharq, 2019.

bildirar, ayni chog'da "Adriatikadan Xitoygacha Turkiyadir" shiori ostidagi da'vodan alternativ sifatida foydalanar edi.

Biroq keyingi o'n yil ichida Turkiya davlati jumladan, tashqi siyosatida muayyan geosiyosiy o'zgarishlar kuzatilmogda. Xususan, AKP (Adolat va Taraqqiyot partiyasi) hokimiyat tepasiga kelganidan keyin Turkiya jahon va mintaqada oldingidan biroz farqli ancha mustaqil geosiyosiy yo'lni o'tkazishga harakat qilmoqda.

O'z milliy manfaatlarini ta'minlashga, chet davlatlar, xalqaro geosiyosiy "aktyorlar" bilan o'zaro munosabatlarni, o'zining u yoki bu siyosiy maqsadlarini avvalgi yillarda bo'lgani kabi "NATO va AQShning intizomli va itoatkor hamkori" sifatida emas, balki yangi sifatda – "mustaqil dunyo davlati" maqomida amalga oshirishga intilmoqda.

Asosida "jahon va mintaq mamlakatlari bilan hech qanday muammo bo'lmasligi, aksincha, iloji boricha ko'proq integratsiyalashish", "Turkiyaning Yevropa Ittifoqiga ehtiyoji – uning Turkiyaga bo'lgan ehtiyojidan katta emas", "Qaerda bir turk bor bo'lsa, u yerda Turkiyaning milliy manfaatlari bordir", "Turkiyaning NATO va AQSh bilan birga umumiy manfaatlari bo'lgani kabi, boshqa mamlakatlar bilan ham umumiy manfaatlari bordir", "Turkiya jahon musulmon xalqlari va davlatlarining himoyachisidir" singari strategik yondashuvlar turgan bu geosiyosiy yo'lning muayyan natijalari ko'zga tashlana boshladi.

Agar bu yangi yo'l to'g'ri va izchil amalga oshirilsa, u holda Turkiyani AQShni istisno etganda, jahonning 10 buyuk davlati (Angliya, Fransiya, Germaniya, Yaponiya, Rossiya, Xitoy) qatoriga olib chiqishi mumkin⁶. Bir so'z bilan aytganda, Yevroosiya joylashgan Turkiyaning jahon

⁶ Fozilxo'jaeva I. Millatlararo munosabatlarni tartibga solish. T., Fan, 2003.



muammolarini yechishdagi ishtiroki oshib bormoqda. U dunyoda, xususan, O'rtta Yer dengizi sohillarida, Liviya va Suriyada o'z manfaatlariga ega. Turkiya Respublikasi Prezidenti matbuot kotibi Ibrohim Kalin ta'kidlaganidek, «G'arb bilan yaqin aloqalar mamlakat tashqi siyosatini sharqiy ufqlarda kengayishiga xalaqit» qilmaydi.

U "Daily Sabah" nashriga bergan intervyusida Turkiya so'nggi 16 yil ichida birinchi marta G'arb bilan tashqi siyosiy aloqalardagi iliqligini yo'qotmay, boshqa mintaqadagi hamkorlar bilan ham munosabatlarni mustahkamlash haqida o'ylayotganini bayon qilgan edi.

«Bizning NATO doirasidagi munosabatlarimiz dunyoning istalgan boshqa burchagida joylashgan davlatlar bilan aloqalarni mustahkamlashimizga ta'sir qilmaydi. Aynan mana shu mantiq Turkiyaning Afrika, Yaqin Sharq, Markaziy Osiyo va Lotin Amerikasida faollashib qolganini to'g'ri izohlashga imkoniyat beradi».

Turkiya Respublikasi O'zbekiston tashqi siyosatida alohida ahamiyatga ega bo'lgan, kuchli tashqi siyosat olib borish salohiyatiga ega, har tomonlama diversifikatsiyalashtirilgan iqtisodiyoti hamda zamonaviy qurolli kuchlariga ega bo'lgan mamlakat hisoblanadi⁷.

Buni quyidagi bir qator omillar bilan izohlash mumkin. Birinchidan, Turkiya dunyodagi 200 dan ortiq mamlakatlar ichida O'zbekistonning davlat mustaqilligini birinchi bo'lib tan olgan va shu tariqa uning dunyo xaritasida yangi davlat sifatida e'tirof etilishi jarayonini boshlab bergan.

Ikkinchidan, o'zbek va turk xalqlarini azaliy do'stlik, birodarlik va qardoshlik rishtalari o'zaro bog'lab turadi. Har ikki xalq ham turkiy tilda so'zlashuvchi bo'lib, ularning madaniyati, dini va urf-odatlarini bir-biriga juda

yaqin. Qolaversa, Turkiyaning rivojlangan sanoati, transport kommunikatsiyalari, dengiz yo'llari, qishloq xo'jaligi, turizm salohiyati, ulkan davlatchilik tajribasi O'zbekiston uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Turkiya turli sohalarda, o'rnak bo'lsa arzigulik darajada rivojlangan mamlakat. U o'zining iqtisodiy qudratiga ko'ra, dunyoda kuchli 20 talik guruhiga kirgan davlatlardan biridir.

Bundan atigi yarim asr oldin ancha qoloq agrar mamlakat hisoblangan Turkiya hozirgi kunga kelib, tobora industrialashib borayotganini alohida ta'kidlash lozim. Mamlakat iqtisodiyotida sanoatning ulushi 28 foizni, qishloq xo'jaligi 15, qurilish 6, xizmatlar 51 foizni tashkil etadi. Sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida qayta ishlash sanoati eng katta ulushga ega.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari ham sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda o'zlarining salmoqli hissasini qo'shib kelmoqda.

To'qimachilik, konchilik, oziq-ovqat, kimyo, farmasevtika sohalari, energetika, metallurgiya, kemasozlik, avtomobilsozlik va elektr maishiy tovarlar ishlab chiqarish taraqqiy etgan. Ayniqsa, turizm dinamik tarzda rivojlanayotgan tarmoq hisoblanadi.

Turkiyaning mazkur jabhalardagi ibratli yutuqlarini o'rganish, hozirda O'zbekiston iqtisodiyotini modernizatsiya qilish yo'lida olib borilayotgan islohotlarda ushbu mamlakatning ilg'or tajribasidan foydanish va turk tadbirkorlari hamda kompaniyalarining sarmoyalarini O'zbekistonda amalga oshirilayotgan turli, ikki tomonga ham foydali bo'lgan qo'shma loyihalarga jalb qilish mamlakatimizning milliy manfaatlariga to'liq mos tushadi.

O'z navbatida, O'zbekiston Turkiyaning mintaqamizdagi tashqi siyosatida muhim o'rin tutadi. Yurtimiz bugungi kunda Anqaraning Markaziy Osiyodagi eng asosiy sheriklaridan

⁷ Mehmet Süreyya Er-Türkiye-Özbekistan işbirliği. A., Islam, 2019.



biri hisoblanadi. Diyorimizning ulkan bozori, tobora liberallashib borayotgan iqtisodiyoti, qulay investitsiyaviy muhiti, tarixiy shaharlari, muqaddas diniy qadamjolari Turkiyada katta qiziqish uyg'otmoqda. Demak, hamkorlikni mustahkamlashdan har ikki tomon ham manfaatdor bo'lib, bu esa o'zaro munosabatlarning istiqboli porloq ekanidan dalolatdir⁸.

O'zbekiston va Turkiya munosabatlari tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, ham yuksalishlar, ham pasayishlar davriga duch kelamiz. Hatto tarixda yurtimizga sarmoyalar olib kirgan turk tadbirkorlari va ishbilarmonlariga tazyiqlar o'tkazildi, badarg'a qilindi.

Mamlakatimizda ochiqlik siyosati boshlangan kezlarda turk ishbilarmonlari avvaliga bozorimizga kirib kelishga hadik bilan qaray boshladi. Ta'bir joiz bo'lsa, Turkiya Prezidenti Rajep Toyyib Erdo'g'onning O'zbekistonga 2018 yil amalga oshirgan tashrifi chog'ida Prezidentimiz Sh. Mirziyoevning turklarga yo'llagan da'vati oradagi "ishonchsizlik pardalari"ni yirtib tashladi.

"Biz Turkiya Respublikasiga ulkan siyosiy, iqtisodiy va harbiy salohiyatga ega bo'lgan, xalqaro maydonda obro'-e'tibori tobora ortib borayotgan yirik davlat sifatida qaraymiz. Ota yurtingiz – O'zbekistonning eshiklari sizlar kabi yaqin qardoshlarimiz uchun doimo ochiq", dedi Shavkat Mirziyoev.

O'zbekiston va Turkiya o'rtasida Strategik sheriklik oliy kengashi tuzilishi ma'lum qilindi. Anqaradagi oliy darajada bo'lib o'tgan sammitda ana shu kengashning birinchi majlisi o'tkazildi.

«Men bosh vazir o'rinbosari Xolmurodovga va bosh vazirning boshqa o'rinbosarlariga, vazirlarga O'zbekistonda o'z

biznesini rivojlantirish istagini bildirgan turkiyalik barcha tadbirkorlarni to'liq qo'llab-quvvatlash va ularning har tomonlama rivojlanishiga ko'mak berish bo'yicha zarur ko'rsatma va topshiriqlarni berganman», dedi Sh.Mirziyoev 2018 yil 30 aprel kuni Toshkentda o'tgan O'zbekiston – Turkiya biznes forumida. «Bu turganlarning hammasi sizlarga xizmat ko'rsatadi, imkon va sharoit yaratadi. Ana shundagina bizda natija bo'ladi. Yana bir marta takrorlayman, Turkiya ishbilarmonlariga nisbatan qilingan xiyonatni davlat siyosatiga xiyonat o'laroq, deb baholayman», dedi Mirziyoev.

Darhaqiqat, Turkiya tomoni O'zbekistonga katta qiziqish bilan qarayapti. Bunga sabab bo'ladigan omillar yetarli. Birinchidan, O'zbekiston boy tabiiy va mineral xom-ashyo resurslariga ega bo'lgan davlatdir. Endi O'zbekistonning xom-ashyo resurslaridan birgalikda hamkor bo'lib foydalanish vaqti keldi.

Ikkinchidan, mamlakatimiz rahbari tomonidan Turkiya va boshqa qator davlatlar fuqarolari hamda tadbirkorlari uchun kirish vizalarini bekor qilish to'g'risida tarixiy qaror qabul qilindi. Bu qaror turkiyalik hamkorlar bilan investitsiya, savdo-sotiq hamda turizm sohalaridagi aloqalarimizni yanada faollashtirishiga ko'mak bermoqda.

Uchinchidan, O'zbekiston hukumati tomonidan xorijiy sarmoyalarni rag'batlantirish va to'liq himoya qilish maqsadida zarur me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Biznes rivojiga g'ov bo'lib turgan ko'plab to'siqlar olib tashlandi. Turkiyalik ishbilarmonlarning mamlakatimizda samarali faoliyat yuritishi uchun o'rtada mavjud bo'lgan ba'zi bir tushunmovchilik va ishonchsizlik kayfiyatiga barham berish maqsadida oliy darajada ko'plab uchrashuvlar o'tkazildi.

To'rtinchidan, O'zbekistonda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish

⁸ Bekmetov E. Xalqlar hamkorligi va iqtisodiy aloqalar. T., Mexnat, 1999.



bo'yicha eng qulay sharoit yaratish uchun qat'iy va izchil qadamlar qo'yilmoqda. Jumladan, xorijiy investorlar daromadlarini qaytarib olib chiqish uchun huquqiy asoslar yaratildi.

Mintaqaning yuragi va markazi esa O'zbekistondir. Shu tufayli Turkiyaning turkiy davlatlar olamiga, xususan, Markaziy Osiyoga e'tiborni kuchaytirishi bejiz emas.

Turkiyaning bu yerda eng avvalo O'zbekiston bilan munosabatlarda yangi sahifa ochishi nafaqat ikki tomonlama munosabatlar, balki mintaqaviy va global balans nuqtai nazaridan ham muhimdir. Mintaqa tinchligi va barqarorligi ham ko'p jihatdan O'zbekiston xavfsizligi va farovonligiga bog'liqligini yoddan chiqarmaslik kerak.

Qadim tamaddunlarga mezbonlik qilgan va Buyuk ipak yo'lining markazida joylashgan O'zbekiston mintaqada yuz berayotgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy sohalaridagi tub o'zgarishlarda ham alohida ahamiyat kasb etadi. O'lis o'tmishi va davlatchilik an'analari, Markaziy Osiyo nufusining taxminan yarmiga teng keluvchi 34 milliondan ortiq aholisi, Osiyoning yuragidagi geostrategik mavqei, boy tabiiy zaxiralari va barakali tuprog'i bilan O'zbekiston mintaqaning eng muhim davlati sanaladi⁹.

Ushbu mustahkam poydevor uzra istiqlolning dastlabki yillaridan boshlab olib borilgan mustaqil, qat'iy, konstruktiv va tinchlikparvar siyosat O'zbekistonning xalqaro miqyosidagi mavqeining oshishiga, dunyoda o'zining mustahkam o'rnini topishiga puxta zamin yaratdi.

Tashrif davomida yana bir qancha hujjat imzolandi. Jumladan, xalqaro terrorizmga qarshi kurash sohasida hamkorlik va diplomatik pasport egalari uchun vizalarni

bekor qilish haqida hukumatlararo bitim tuzildi. O'zaro aloqalar xalqaro tashkilotlar doirasida ikki davlatning parlamentlari va vazirliklari o'rtasida ham davom etdi. Savdo-iqtisodiy hamkorlik sarmoyalarni o'zaro rag'batlantirish va himoyalash, ikki tomonlama soliq solishga yo'l qo'ymaslik to'g'risidagi bitimlar bilan muvofiklashtirildi. Ikki tomon o'rtasida bojxona to'lovlariga nisbatan eng ko'p kulaylik berish tartibi kuchga kirishi tufayli O'tgan yil mamlakatlarimiz o'rtasidagi do'stona munosabatlar yangi strategik bosqichga ko'tarildi O'zaro sa'y-harakatlar tufayli tovar ayirboshlash hajmi sezilarli darajada o'sdi. Imzolangan hujjatlar samarasida xalqlarimiz o'rtasidagi bordi-keldi yengillashdi. Oliy darajadagi navbatdagi muzokaralar xalqlarimiz manfaatiga xizmat qilayotgan ushbu ezgu ishlar sur'atini yanada oshirishiga ishonchim komil, – dedi Shavkat Mirziyoyev. Rejep Tayyip Erdo'g'on davlatimiz rahbariga taklif uchun minnatdorlik bildirib, mamlakatlarimiz o'rtasidagi hamkorlik barcha sohalarida muttasil taraqqiy etayotganini mamnuniyat bilan qayd etdi. Turkiya va O'zbekiston tarixi buyuk, urf-odat va an'analari mushtarak, eng yaqin do'stlar sifatida tanilgan. Xalqaro maydonda ham, o'zaro aloqalarda ham bir-birini doimo qo'llab-quvvatlaydi.¹⁰

Bugungi muzokaralar ushbu do'stlik rishtalarini yana bir pog'ona yuqoriga olib chiqishiganishonaman, – dedi Rejep Tayyip Erdo'g'on.

O'zbekiston Turkiya hamkorligi keyingi yillarda ancha rivojlanib diplomatik aloqalar ham kuchayib bormoqda birgina davlat rahbarlari o'rtasidagi oliy darajadagi uchrashuvlar soni so'ngi uch yilda 7 marta tashkil etgani gapimiz yaqol misoli bo'la oladi.

⁹ Axmad Xo'ja. Yurtimiz, millatimiz salohiyatining timsoli. Xalq so'zi. 2010. 19-iyul.

¹⁰ Elena Kuznetsova. Istiqbol bugundan boshlanadi. Xalq so'zi. 2017. 2- mart.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh.Mirziyoyev “Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi”. Toshkent., 2018
2. Xonazarov Q. Mustaqillik va milliy munosabatlarning rivojlanishi. T.,2016
3. Bekmetov E. Xalqlar hamkorligi va iqtisodiy aloqalar. T., Mexnat, 1999.
4. Iskandarov I. Bozor iqtisodiyotiga o’tish: qiyinchiliklar, yechimlarni izlash. Inson va siyosat. 1995. №8
5. Salimov va b. Yangi O’zbekistonning 3 zafarli yili. T., Sharq, 2019.
6. Elena Kuznetsova. Istiqbol bugundan boshlanadi. Xalq so’zi. 2017. 2- mart.